
Bayram arafasida mehnat faxriylariga bayram sovg'alari topshirildi

*"Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" deya atalmish bosh g'oya ostida nishonlanayotgan mustaqilligimizning 31 yillik bayrami arafasida tumanimizdagi mehnat faxriylari holidan xabar olinib, bayram tabrigi va tuhfalari yetkazildi.

*Tuman hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ezgu tadbir doirasida uzoq yillar davomida tumanimizning turli sohalarida samarali mehnat qilib, bugun oila davrasida keksalik gashtini so'rayotgan nuroniylar, kayvoni onaxonlar yo'qlandi.

*Tuman hokimi, sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari hamda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi vakillari faxriy keksalarimiz xonadonlarida bo'lib, ularga Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov hamda tuman hokimining eng ulug', eng aziz bayram munosabati bilan yo'llangan bayram tabriklari, esdalik sovg'alari va oziq-ovqat mahsulotlarini manzilli tarzda yetkazishdi.

*Shirin diydor va dildan suhbatlarda barcha faxriylarning tumanimizni har jabhadagi rivoji, yosh avlodning munosib tarbiyasidagi muhim hissasi yana bir bor e'tirof etilib, barcha fidoiy xizmatlari uchun ularga minnatdorchiliklar bildirildi.

2022-08-31 08:53:39